

MUSIQIY FANLARDA PEDAGOG KREATIVLIGI

Halilov Raqib

Respublika musiqa va san'at kolleji

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativlikning asoslari, uni rivojlantirishda faollik ko'rinishlarining ahamiyati, musiqiy pedagog faoliyatidagi kreativlik o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodiy yo'nalghanlik, tabiatan faollik, aqliy faollik, ijod.

Kreativlik – pedagogning an'anaviy fikrlashdan farqli ravishda, ta'lif va tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobjiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyat. Musiqa o'qituvchisi, umuman olganda, musiqiy pedagogning ish jarayonida kreativlikni rivojlantirish muhimdir. Kreativ pedagog faoliyatning har qanday turida yangiliklar topa olish, ularni qo'llay olishdek o'z ijodiy yo'nalishiga ega bo'ladi. Avvalambor, "kreativlik" va "ijodiy yo'nalghanlik" tushunchalarining bir –biridan farqli tomoniga to'xtalib o'tsak. Bulardan birinchisi intellektual rivojlanganlik bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi faoliyatning ijodkorona fikrlash rivojlanishini ta'minlovchi turiga asoslanadi.

"Ijodiy yo'nalghanlik" va "kreativlik" tushunchalarining funksional asoslarini quyidagicha ko'rib chiqamiz:

1) Tarkibiy jihatdan – yo'nalghanlik faoliyat predmetiga, kreativlik – mulohaza bilan qabul qilingan qarorga bog'langan bo'ladi.

2) Faollik – ijodiy yo'nalghanlikning o'zidan kelib chiqsa, kreativlik fikrlash jarayonidan kelib chiqadi.

Kreativlikni rivojlantirishda faollikning turli ko'rinishlari asosiy rol o'ynaydi:

1) Evolyutsion jarayon – genetik, biologik, jismoniy;

2) Tabiatan va ijtimoiy faollik;

3) Faoliyatning ko'rinishi – ish, o'qish;

4) Ong darajasi – tabiatan berilgan ong, psixik, aqliy, ma'naviy.

Yuqorida sanab o'tilgan faollik turli ko'rinishlarining so'nggi bandi, ya'ni pedagogik faoliyatda eng muhim sanalgan ong darajalariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Kreativlikdagi *tabiatan faollik* fikrlash jarayonining inson tanasida reaksiya berishi bilan yuzaga keladi. L.S.Vigotskiy inson madaniyatining asosi bo'lmish nafas, muskul, tebranish, tovushga bo'lgan reaksiyalar kabi murakkab unsurlardan tashkil topgan ichki harakatning asosiy guruhlarini ajratib ko'rsatadi. Musiqachidagi



tabiatan faollik bu tug'ma qobiliyat, ong bilan bog'liq bo'lsa, aynan shu jihat pedagogda esa ichki sezgi orqali o'qitish uslub va usullari tanlashda namoyon bo'ladi.

Psixik faollik ong osti jarayonlari bilan boshqariladi va tabiatan faollik bilan chambarchas bog'liq. Dinamizm, harakatchanlik, energiya, eslab qolish davomiyligi, intensivlik psixik faollikning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Bu faollikning yo'nalanlik va kreativlik bilan genetik munosabatlari xususidagi g'oyalarni tasdiqlaydi.

Fikr voqeilikning asosiy tashkilotchisi vazifasini bajarishi *aqliy faollikning* ma'nosini keltirib chiqaradi. Aqliy faollik va kreativlik o'rtasidagi bog'liqlik - shaxsiy qarash, qiziqish, maqsadlar bilan haqiqatni o'zgartira olishdadir. Agar tabiatan faollik bu tug'ma qobiliyat, fikrlash orqali faoliyat olib borishni anglatsa, aqliy faollik jarayonga maqsadli yo'nalanlikdir.

Demak, kreativlik o'zida 3 unsurni o'z ichiga oladi. Bular:

- 1) *Tezlik*;
- 2) *Quvvat (energiya)*;
- 3) Yangiliklar topishga *intilish*.

Kreativlik faoliyatning yuqoridagi ko'rinishlaridan tabiatan, psixik va aqliy faollikda o'zini barqaror namoyon qiladi. Kreativlikning 3 unsuri ham ushbu uch faollik ko'rinishidan kelib chiqadi: tezlik (g'ayriixtiyoriy) – bu tabiatan faollik ko'rinishidir; quvvatga boylik – psixik faollik va izlanuvchanlik – aqliy faolikdandir.

Ahamiyatlilik, jadallik, samaradorlik, barqarorlik ijodiy yo'nalanlikning asosiy sifatlaridir. Bu sifatlarning kreativlikka oid tomonlari ham mavjud:

Ahamiyatlilik. Har qanday musiqa o'qituvchisi faoliyatida o'z oldiga aniq bir maqsadni qo'yib oladi. Bolalar bilan ishlash jarayonida o'zidagi ijodiylikni boshqalarga ya'ni o'quvchilarga o'tkaza bilish zarur. Bunda har qanday kreativ jarayon ahamiyati oshadi.

Jadallik. Musiqiy pedagog ijodiy ishga emotsional yondoshgan holda qanchalik o'zi va atrofdagilar uchun ijodkorlikni ko'rsata bilsa, bunda o'qituvchi ham o'quvchi ham yuqori samaraga erishadi. Shuning uchun ham musiqiy pedagog o'zi uchun va atrofdagilar uchun ham "ijod" etishi ahamiyalidir.

Kreativ ya'ni ijodkor musiqa o'qituvchisi o'quvchilariga bilim berishidan avval o'zi ijodiy yo'nalanlikning turli ko'rinishlariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kreativlik ko'rinishlari:

- Og'zaki – ma'lumotlar o'zlashtirish va yetkazishda so'zlarni ishlata bilish, shuningdek, nutqni rivojlantirish;



- Eshitish – shovqinli, tovushli va musiqiy dunyoni improvizatsiya, fantaziyalar orqali o'zlashtira olish;

- Vizual – obyekt, narsa, hodisalarning tasvirlarini ko'rish, idrok etish, tasavvurida yaratish, vizual tovush kompozitsiyalarini qabul qilish va ijod etish qobiliyat

Plastiklik – musiqada usullar vositasida erkin fikr bildira olish.

Musiqiy pedagogda o'quvchilarda musiqa faoliyatini rivojlantirish orqali kreativlik namoyon bo'ladi. Buning uchun aniq voqelikka bog'liq bo'lgan pedagogik improvizatsiya usullarini o'zlashtirish zarur. O'qituvchi o'quvchilarda tug'ilgan savolning javobini topishda intilishga undaydigan muammoli vaziyatlarni yarata bilishi lozim. Bundan tashqari o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonchni uchun rag'batlantirib tursa ayni muddao bo'ladi. Vazifa bajarishda ijodkorlikni turlicha qirralarini ko'rsatishga imkon yaratilishi ham o'quvchilarda va ayni daqiqada, o'qituvchida ham fantaziya boyligining o'sishiga zamin yaratadi. Pedagog guruhli ishslash, taqqoslash, savol – javob va shu kabi ijodiy usullarni qo'llasa, bu o'quvchilarda yanada ko'proq bilim olishga intilish, qo'shimcha vazifalarni ham bajarishga bo'lgan xohishni keltirib chiqaradi. O'qituvchi bolalar bilan ishslash mobaynida faol uslublarni qo'llab, o'z ishiga professional yondoshganida kreativlik shaxsiyat (pedagog)ning alohida sifatiga aylanadi.

Musiqiy pedagog xoh u guruhli dars bo'lsin, xoh yakka xoh yakka dars, bolada o'rganayotganiga bo'lgan xohishni yo'qotmasa, har bir qilayotgan ishida zavqni tuyushiga imkon yarata olsagina o'quvchida o'zi ko'rishni istagan natijaga erisha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бернштейн Н.А. Физиология движений и активности. М. : Наука, 1990.
2. Выготский Л. С. Психология искусства. М. : Педагогика, 1987.
3. ZiyoNet.uz. Internet tarmog'i.

